

ARAB TILIDA HOL VA UNING TALQINI

Dadaboev Boburmirzo Qosimboy o'g'li

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xorijiy til xisoblanmish arab tilida hol so'z turkumi va uning talqini taxlil qilingan. Hol bu ikkinchi darajali bo'lak harakatning bajarilishidagi turli holatlarni bildiradi, harakat-belgini xarakterlaydi: harakatning bajarilishi, holatning yuzaga kelishi, shu bilan bog'langan shart, sabab, maqsad, payt, o'rin, miqdor-daraja hollari kabilar. Maqolada arab va o'zbek tilidagi hol mavzusi ikki tilni o'zaro solishtirgan holda o'rganildi.

Kalit so'zlar: Arab tili, hol, ravish holi, sabab va maqsad holi, o'rin - payt holi, mutloq masdar, vositasiz to'ldiruvchi, tushum kelishig.

Bilamizki, chet tilini o'rganish uchun uni ona tili bilan qiyoslab o'rganish foydaliroq. Shuning uchun ham arab tili grammatikasi o'zbek tilining grammatik qonun-qoidalariga qiyoslangan holda o'rganiladi. O'zbek talaba uchun g'alizroq, tushunishi qiyin ayrim terminlar esa tarjima qilinib, muomalaga kiritiladi.

Arab tilida "hol" atamasi aytilganda o'zbek tilidagi faqatgina ravish holigina tushuniladi. O'zbek tilidagi holning boshqa turlari arab tilida turli mavzular tarkibida yotadi. Shuning uchun quyida biz o'zbek tilidagi hollar arab tilida qaysi umumiy mavzu ostida qanday nomlar bilan keltirilishini ko'rib chiqamiz.

O'zbek arabshunosi E. Talabovning "Arab tili" nomli darsligida esa mutlaq masdarga quyidagicha ta'rif berilgan: Mutlaq masdar aslida ravish holi bo'lib, u fe'l-kesimning o'zidan yasalgan va noaniq shaklda tushum kelishigiga qo'yilgandir. Arab tilida bunday masdarlar gapda ish-harakat mazmunining yana ham yaqqol va ravonroq ifodalanishiga yordam beruvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Gapda mutlaq masdar fe'l-kesimdan orqada keladi:

ضَرَبُوا اللَّيْنَ ضَرْبًا - O'g'rini urdilar

Shuningdek, N.I.Ibrohimov va M.Yusupovning "Arab tili grammatikasi" darsligida maf'ul mutlaqni "masdari mutlaq" deb ataydilar va ba'zi hollarda masdari mutlaqdan oldin كل أشد، so'zlari nasb holatida kelib, masdari mutlaq esa ularga nisbatan muzof ilayhi "مضاف اليه" - izofaning ikkinchi bo'lagi" bo'lib kelishi mumkin, degan fikr bildiradilar:

حَبَّتِ الْأُمُّ أَوْلَادَهَا كُلَّ الْحَبِّ - Ona farzandlarini qattiq sevardi.

Hollar mazmundagi farqlariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: ravish holi, o'rin holi, payt holi, sabab holi, maqsad holi, miqdor-daraja holi, shart va to'siqsizlik hollari.

Ravish holi harakatning qanday bo'lishini, bajarilish sifatini aniqlaydi: U yaxshi gapirdi. Student sekin o'rnidan turdi kabi. Ravish holi harakatning qanday bo'lishini ba'zan o'xshatish yo'li bilan anglatadi: Paxtalar chamanday ochildi. Yigit bulbul bo'lib sayradi. Ravish holining ifodalanishi quyidagicha: holat ravishi bilan ifodalanadi: Yaproqlar sekin shitirladi; ravishdosh bilan ifodalanadi: U o'z odaticha sichsirib so'zlaydi; holda so'zi qo'shilgan sifatdosh (ba'zan boshqa so'z) bilan ifodalanadi: U charchagan holda qadam bosardi; kelishik formasini olgan so'z bilan ifodalanadi (bularning ko'pi tamoman ravish bo'lib ketgan): Elektr birdan yondi. U chindan gapirdi.

Arab tilida arab tilidat ravish holi bo'lib kelgan so'z odatda noaniq holatda tushum kelishigida bo'ladi. Masalan,

قَرَأَ الطُّلَّابُ هَذَا النَّصَّ جُمْلَةً جُمْلَةً - *Talabalar matnni jumla-jumla qilib (jumlalarga ajratib) o'qidilar.*

جِئْنَا هُنَا طَاعَةً لِأَمْرِكُمْ - *Amringizga binoan (itoat etgan holda) bu erga keldik.*

Ravish holi ba'zan aniq nisbat sifatdoshidan shakllanishi mumkin va bunda sifatdosh ish-harakatning sub'ekti bilan jinsda va sonda moslashishi kerak. Masalan,

خَرَجَ الطَّالِبُ مِنْ بَيْتِهِ ضَاجِحًا - *Talaba uyidan kulib turib chiqdi.*

خَرَجَ الطُّلَّابُ مِنْ بَيْتِهِمْ ضَاجِحِينَ - *Talabalar uylaridan kulib turib chiqdilar.*

Agar sifatdosh o'zidan keyin tushum kelishigini talab qiluvchi fe'ldan shakllangan bo'lsa, shu xususiyat sifatdoshda ham saqlanib qoladi. Masalan,

وَصَلَ صَدِيقِي إِلَيْنَا رَاكِبًا سَيَّارَتَهُ - *Do'stim biznikiga mashinasini minib keldi.*

Ravish holi goho sub'ektning emas, balki ob'ektning holatini bildirishi ham mumkin va bunda, tabiiyki, hol ob'ekt bilan sonda va jinsda moslashadi. Masalan,

دَخَلْتُ الْحَدِيقَةَ مُزْمَرَةً - *Men boqqa yashnab turgan holatida kirdim.*

Urin holi harakatning bo'lishidagi umumiy o'rin ma'nosini anglatadi: U kecha qayerga ketgan edi? Shu yerda edi kabi. Bu holning o'rin anglatishi quyidagicha:

1. Harakatning bo'lish o'rnini anglatadi. Bu vaqtda o'rin kelishigidagi so'z bilan ifodalanadi (bu so'z o'rin ravishi bo'lga- nidek, o'rin kelishigidagi boshqa so'z ham bo'la oladi). Masalan: Sen u yerda nima qilayotgan eding? Urin holining bu ma'nosi ko'makchili konstruksiya (aro, ichra kabi) bilan ifodalanishi ham mumkin. Masalan: Qilichlashib maydon ichra o'lmadim.

2. Harakatning yo'nalish o'rnini bildiradi. Bu vaqtda jo'nalish kelishigidagi so'z bilan ifodalanadi: Uni bu yoqqa chaqiring. U maktabga ketdi kabi. Bunday o'rinlarda boshqaruvchi so'z harakat fe'llaridan bo'ladi. Urin holi vazifasidagi so'z tomon, sari (keyingisi arxaik) ko'makchilaridan biri qatnashgan konstruksiya bilan

ifodalanishi ham mumkin: U maktab tomon ketdi.— U maktab sari ketdi. Bunda umumiylik, aniqsizlik bildiriladi (maktabning o‘ziga emas, balki o‘sha tomonga), shuningdek, u ko‘pincha yana jo‘nalish kelishigi affiksini ham oladi.

O‘rin holi ham payt holi kabi tushum kelishigidagi yoki biror predlog bilan qaratqich kelishigida kelgan otlardan ifodalanadi. Masalan:

مَشَى الطَّالِبُ يَمِينًا وَيَسَارًا - *Talaba o‘ngu chapga tomon yurdi.*

تَقَعُ جَامِعَتُنَا قُرْبَ مَسْرَحِ نَوَائِي - *Universitetimiz Navoiy teatri yonida joylashgan.*

Payt holi harakatning, ishning bo‘lish vaqtini anglatadi: U kechqurun keldi. U payt ravishi yo shu ma‘nodagi so‘z, masalan, ot bilan ifodalanadi. Payt holi o‘rin holi bilan bir xil formada ham kelaveradi, biroq shu so‘zning leksik ma‘nosi, o‘rin anglatishi uni aniqlab beradi: U maktabda o‘qiydi.— U yozda dam oldi. Bu holning payt ma‘nosini anglatadi.

Payt holi arab tilida noaniq holatda, tushum kelishigida yoki biror predlog yordamida qaratqich kelishigida kelgan otlardan shakllanadi. Masalan: أَقْرَأُ كُتُبًا عَرَبِيَّةً دَائِمًا – Men doim arabcha kitoblarni o‘qiyman.

جَلَسْنَا مَعَ الْأَصْدِقَاءِ فِي قَاعَةِ الْمُطَالَعَةِ حَتَّى الْمَسَاءِ – *Do‘stlar bilan qiroatxonada kechgacha o‘tirdik.*

Ba‘zan tushum kelishigidagi hol aniq holatda bo‘lishi ham mumkin. Masalan:

زُرْنَا هَذِهِ السَّنَةَ كَثِيرًا مِنَ الْقُرَى – *Bu yil biz ko‘p qishloqlarga bordik.*

Payt holi izofali birikmalardan ham shakllanadi va bunda muzof tushum kelishigida bo‘ladi. Masalan:

نَكْتُبُ وَفَتِ الدَّرْسِ كَثِيرًا مِنَ الْجُمَلِ الْعَرَبِيَّةِ إِلَى دَفَاتِرِنَا – *Dars paytida ko‘pgina arabcha jummalarni daftarimizga yozamiz.*

Payt holini ifodalovchi ayrim so‘zlar aniq holatda, tushum kelishigida keladi va bunday so‘zlar ozchilikni tashkil qiladi. Masalan: الْيَوْمَ، الْبَارِحَةَ، الْآنَ va h. z.

Yana shunday yordamchi so‘zlar mavjudki, ular umumiy qoidaga xilof ravishda bosh kelishikda kelgani holda payt holini ifodalaydi. Masalan:

مَا وَصَلَ الْقِطَارُ بَعْدُ - *Poezd hali kelgani yo‘q.*

Daraja va miqdor holi ish-harakatning bajarilish miqdori va darajasini ifodalovchi bu so‘zlar odatda noaniq holatda, tushum kelishigida keladi va qancha, qay darajada kabi savollarga javob bo‘ladi. Masalan:

كَتَبْنَا هَذِهِ الْجُمْلَةَ مَرَّتَيْنِ - *Bu jumlaning ikki marta yozdik.*

أَمْسَ لَعِبْنَا كَثِيرًا وَتَعَبْنَا جَدًّا - *Kecha ko‘p o‘ynadik va juda charchadik.*

Arab tilida ham sabab va maqsad holi bitta so‘z ya‘ni masdar bilan yoki jumla bilan ishlatilishi mumkin ekanligini ko‘ramiz. Arab tilida sabab va maqsad hollari ish-harakatnong sodir bo‘lishi sabab va undan kuzatilgan maqsadga ishora qiladi. Masalan: درسته دقيقا تعليمًا له - bilimdon bo‘lishi uchun ko‘p (rosa) o‘qitdim. Bu gapda

sabab holi bitta so‘z تعليمًا bilan keldi. Agar harakat nomi bitta so‘z bilan kelsa ل "li" ko‘makchisi ham kelishi mumkin yoki yuqoridagi misol kabi tushum kelishigida keladi.

O‘zbek tilidagi holning barcha turlari arab tili grammatikasiga doir kitoblarda المنصوبات , “mansubot”, ya’ni tushum kelishigidagi ismlar mavzusi ostida keltiriladi. Biroq bu mavzu ostida gapning boshqa bo‘laklari ham mavjud. Ushbu mavzu o‘tmishda yurtimizda yashab o‘tgan buyuk olimlardan biri Mahmud az-Zamaxshariy tomonidan quyidagicha yoritib berilgan:

المنصوبات علي ضربين: اصل و ملحق به. فالاصل هو المفعول و هو خمسة اضرب و الملحق به سبعة اضرب

“Tushum kelishigidagi ismlar ikki xil bo‘ladi: asl va unga o‘xshash ismlar”

1. Asl tushum kelishigidagi ismlar “maf’ul”lardir. Ular besh xil bo‘ladi.

2. Aslga o‘xshash tushum kelishigidagi ismlar esa yetti xil bo‘ladi.

Asl tushum kelishigidagi ismlar quyidagilardir:

- 1) المفعول المطلق - ‘al-maf’ulu-l-mutlaqu – “Mutloq masdar”
- 2) المفعول به - ‘al-maf’ulu bihi – “Vositasiz to‘ldiruvchi”
- 3) المفعول فيه - ‘al-maf’ulu fihi – “O‘rin-payt holi”
- 4) المفعول معه - ‘al-maf’ulu maa’hu – “Birgalikdagi to‘ldiruvchi”
- 5) المفعول له - ‘al-maf’ulu lahu – “Sabab, maqsad holi”

Aslga o‘xshash tushum kelishigidagi ismlar guruhiga esa quyidagi yetti guruh kiritilgan:

- 1) الحال – al-hol – “Holat holi”
- 2) التمييز – at-tamyiz – “Cheklov”
- 3) المستثنى – al-mustasna – “Istisno”
- 4) "كان" bobidagi kesim - الخبر في باب "كان" - al-xabaru fi babi kana
- 5) "ان" bobidagi ism - الاسم في باب "ان" - al-ismu fi babi “inna”
- 6) "لا" mutloq inkor yuklamasidan keyin kelayotgan ega. - اسم "لا" لنفي الجنس - ismu “la” linafyi-l-jins
- 7) "ليس" ma’nosida kelayotgan "ما" va "لا" inkor yuklamalaridan keyin kelayotgan kesim. - خبر "ما" و "لا" بمعني "ليس" - xabaru ma va la bima’na laysa

Hol bu yuqorida aytganimizdek, ish-harakat sodir bo‘lish vaqtida foil yoki maf’ul bihning holatini bayon qilgan har bir ism holdir. Yuqoridagi ma’lumotlardan ham ko‘rinib turibdiki holat holiga arab tilshunoslari ham, o‘zbek tilshunoslari ham deyarli o‘xshash ta’rif berishgan.

Shuningdek, arab tilshunos olimlari bu holning turlari haqida ham to‘xtab o‘tishgan. Hol uch hil bo‘ladi:

1. Tashqi holatni ifodalovchi hol va u sohibul-hol bilan sonda, jinsda moslashadi. Masalan: عدت الطائرة سالمة – *Samalyot salomat holda qaytdi.*

2. Jumla jumlaga o'xshash ko'rinishida hol yoki predlog va undan keyin kelayotgan qaratqich kelishigidagi ism bo'lsa. Masalan:

رأيت الطائرة بين السحاب – *Samalyotni bulutlar o'rtasida ko'rdim.*

3. Ismiy yoki fe'liy jumla bo'lib kelsa. Masalan:

سار الطفل و بكي – *Bola yeg'lab (holda) borardi.*

Yuqoridagi kelgan ma'lumotlardan ham ko'rinib turibdiki hol mavzusi arab tili grammatikasidagi muhim va ko'p qo'llaniladigan mavzulardan biri hisoblanadi. Misollarda ko'rib chiqqanimizdek uning turlari va yasalishi ham turlicha bo'ladi. O'zbek va rus tillaridagi darsliklarda hol mavzusini mutloq masdar atamasi bilan tushuntiriladi va u haqida ma'lumotlar kam kelgan. Ularda bu mavzu juda qisqa yoritilgani sabab, faqat shu fe'ldan yasalgan tushum kelishigidagi ism deb berib ketilgan. Shu sabab ham bu mavzuni yoritishda asl arab manbalaridan ko'proq ma'lumotlar berishga harakat qilindi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. –М.: “Восточная литература” РАН, 1998. С. 339.
2. San'atulloh B. Mabdaus sarf va mabdaun nahv. T.- 2018. 178-b.
3. Носирова .М . “Ўрта аср нахвидан намуналар”ТошДШИ, - Т.2004.629
4. М.Носирова. Махмуд Замахшарийнинг “Ал-Унмузаж фи-н-нахв” рисоласи. Т.ТошДШИ. 2005. –Б. 81
5. 35 Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili. I J.- Namangan: Ibrat, 2009. B-368.
6. Talabov E. Arab tili- T. O'zbekiston, 1993.- 154-b.
7. 318.ص. العقيدة دار الإسكندرية. النحوية الدروس. ناصف حفني